



TAYANCH KOMPETENSIYALARNI ANIQLASH MUAMMOSI TA'LIM MAZMUNINI YANGILASHNING MARKAZIY MASALALARIDAN BIRI SIFATIDA

Begmatova S.N.

Axborot texnologiyalari va menejment universiteti o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: kompetensiya, siyosiy kompetensiyalar, ijtimoiy kompetensiyalar, universal kompetensiyalar axborotlashgan jamiyat, kompetensiyaviy yondashuv.

Ключевые слова: компетентность, политические компетенции, социальные компетенции, универсальные компетенции, информационное общество, компетентностный подход.

Key words: competence, political competences, social competences, universal competences, information society, competence-based approach.

Резюме: Ushbu maqolada tayanch kompetensiyalarni aniqlash muammosi ta'lim mazmunini yangilashning markaziy masalalaridan biri sifatida ekanligi aytib o'tiladi.

Резюме: В данной статье отмечается, что проблема определения базовых компетенций является одним из центральных вопросов обновления содержания образования.

Summary: This article notes that the problem of defining basic competencies is one of the central issues of updating the content of education.

Rivojlangan davlatlarda axborot-kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish hamda bu boradagi xavfsizligini ta'minlash muhim vazifalardan biri sifatida qaraladi. Ular bu jarayonni muttasil takomillashtirib borish orqali yangicha tahdidlarda, mafkuraviy xurujlarga qarshi samarali kurashadi va axborotning salbiy ta'sirini ijtimoiy muhitda namoyon bo'lishida maxsus metodologiya yaratishda ilmiy tadqiqotlarni muttasil olib boradi.

Kompetensiyalar ta'limning maqsadini belgilashda mavjud an'anaviy tasavvurlar bilan kifoyalanmaslikni, ya'ni bilim, ko'nikma va malakalar shakllantiriladigan tizim sifatida qarash bilan cheklanib qolmaslikni taqozo etadi. Shu bilan birga mazkur tushuncha nazariya va amaliyotda yaqqol o'z ta'rifiga ega emas. Uning quyidagicha asosiy tavsifiy jihatlari ko'zga tashlanadi: "bilimlar tizimi", faoliyat tajribasi va motivatsiya, muammolarga yechim topish qobiliyati ("sifatlar, xususiyatlar birligi") (E.F.Zeer, A.V.Xutorskiy), shaxsiy va kasbiy faoliyatga amaliy tayyorlikning yuqori darajasi (O.Musurmonova).



Kompetensiyalarning ta'lim jarayonidagi o'rni ta'lim-tarbiyaning maqsadi; ta'limning faoliyatga oid tarkibiy qismi, ta'limiy faoliyatning sifat ko'rsatkichi, kasb sohibining shaxsiy-individual qadriyatlarini sifatida belgilanadi.

Kompetensiyalar – bu insonga hayotiy va kasbiy muammolarni hal qilish, shaxsiy va o'z-o'zini kasbiy jihatdan ro'yobga chiqarish imkoniyatini beradigan xususiyatlar to'plamidir. Shunga ko'ra, kompetensiyalar bo'yicha "bilim" qanchalik mos va to'liq bo'lsa, odamlar turli sohalaridagi muammo va vazifalarni, ya'ni umuman sermahsul hayotiy faoliyatni hal qilishga shunchalik tayyor bo'ladi.

"Tayanch kompetensiyalar" atamasi ilk marta 1992 yilda Yevropa Kengashining "Evropada o'rta ta'lim" loyihasida paydo bo'lgan. "Evropa uchun asosiy kompetensiyalar" simpoziumi hujjatlarida zamonaviy bitiruvchilarning beshta asosiy kompetensiyalari ajratib ko'rsatilgan:

1. Siyosiy va ijtimoiy kompetensiyalar (mas'uliyatni o'z zimmasiga olish, birgalikda qaror qabul qilishda qatnashish va nizolarni zo'rovonliksiz bartaraf etish qobiliyatlarini).

2. Ko'p madaniyatli jamiyatdagi hayot bilan bog'liq kompetensiyalar (farqlarni qabul qilish, boshqalarga hurmat, o'zga madaniyat, til, din kishilari bilan birgalikda faoliyat yuritish qobiliyati).

3. Axborotlashgan jamiyat bilan bog'liq kompetensiyalar (yangi texnologiyalarga ega bo'lish, ularni qo'llash imkoniyatlarini tushunish, ommaviy axborot vositalari va reklamalar orqali tarqatilayotgan ma'lumotlarga tanqidiy munosabat).

4. Kasbiy tayyorlash negizida uzluksiz ta'lim asosi sifatida butun hayot davomida bilim olish qobiliyati.

6. Tayanch (asosiy, universal) kompetensiyalarni aniqlash muammosi ta'lim mazmunini yangilashning markaziy masalalaridan biridir.

E.F.Zeer, N.A.Muslimov, B.X.Xodjaev larning tadqiqot ishlarida tayanch kompetensiyalarning mazmuni va vazifalari ochib berilgan bo'lib, barcha tayanch kompetensiyalar bir qator o'ziga xos belgilariga ega:

- tayanch kompetensiyalar ko'p funksiyali tavsifga ega. Agar ushbu kompetensiyalarga ega bo'lish kundalik, kasbiy yoki ijtimoiy hayotdagi muammolarni hal qilishga imkon bersa, kompetensiyalar muhim hisoblanadi. Ular asosiy maqsadlarga erishish va turli vaziyatlarda murakkab muammolarni hal qilish uchun o'zlashtirilishi kerak;
- tayanch kompetensiyalar fanga oid va fanlararo hisoblanib, ular turli vaziyatlarda (nafaqat ta'lim muassasasida, balki ishda, oilada, ijtimoiy-siyosiy sohada va boshqalarda) qo'llaniladi.
- tayanch kompetensiyalar yetarli darajadagi intellektual rivojlanishni talab qiladi: abstrakt, tanqidiy fikrlash, o'z-o'zini namoyon qilish, o'z mavqeini belgilash, o'z-o'zini baholash, tanqidiy fikr yuritish va boshqalar;

- tayanch kompetensiyalar ko‘p qirrali bo‘lib, ular turli xil aqliy jarayonlar va intellektual qobiliyatlar (tahliliy, tanqidiy va boshqalar), kommunikativ malakalar, shuningdek sog‘lom fikrni o‘z ichiga oladi.

Tayanch kompetensiyalarning o‘ziga xosliklari tahlili ularning asosida kompetentlikning axborot-kommunikativ bilim, ko‘nikma va malakalar bilan bog‘liq jihatlari mavjudligini ko‘rsatdi. Aynan axborot-kommunikativ kompetentlik siyosiy-ijtimoiy, axborot bilan ishlash, hayotiy kompetensiyalarga ega bo‘lishni taqozo etadi. Shaxs rivojining asosini tashkil etuvchi ilmiy qadriyatlar, qarashlar, tasavvurlar, ideallar yig‘indisi sifatida axborotlar majmuini tashkil etuvchi g‘oyaviy tizimlar (ideosferalar) tashkil etadi.

B.Xodjaev, M.Vahobov, M.Pardaevlar o‘z izlanishlarida ta’kidlaydilarki, kompetensiyaviy yondashuv – bu ta’limiy natijalarga erishishga yo‘naltirilgan yondashuv bo‘lib, unda natija sifatida o‘zlashtirilgan ma’lumotlar miqdori emas, balki insonning turli murakkab vaziyatlarda samarali harakatlana olish qobiliyati muhim o‘rin tutadi.

Jahon axborot makonida yuz berayotgan voqealar: axborot xurujlari, dezinformasiya, agressiv axborotlar, keraksiz bahs-munozaralarga olib keluvchi noto‘g‘ri va ig‘voli ma’lumotlar tarqalayotgani, xullas, axboriy tahdidlar bor ekan, milliy axborot makoniga chegara qo‘yib bo‘lmasligini nazarda tutib, yosh avlodning sog‘ligi va ma’naviy olamining daxlsizligini ta’minlaydigan, vayronkor axborot-kommunikativ oqimdan himoya qilishga qaratilgan xalqaro, milliy, huquqiy, tashkiliy va boshqa mexanizmlaridan foydalanish samaradorligini yanada oshirish lozim Ayniqsa, «butun dunyoda murakkab va tahlikali vaziyat hukm surayotgan hozirgi vaqtda yoshlar hayotiga tahdid solayotgan xavf-xatarlarning oldini olish, jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashish ham muhim ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasining 1997 yil 24 apreldagi «Axborot olish kafolatlari va erkinligi to‘g‘risida»gi 400-I-son Qonuni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2002 yil 12 dekabrdaagi «Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida»gi 439-II-son Qonuni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son.
3. Abdujabborova M. O‘smirlar orasida olib boriladigan mafkuraviy profilaktika ishlarining ijtimoiy-pedagogik asoslari. Pedagogika fanlari nomzodi. ... diss. Avtoref. – T., 2007. – 22 b.
4. Abdullayeva M.Z. Kibermakon va islom bilan bog‘liq diniy-ma’naviy jarayonlar. Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – T., 2020. – 52 b.
5. Дубровский Д.И., Вержбицкий В.В. Категория информации (философский обзор) // Философские науки. – Москва, 1976. – № 1. – С.148-158.
6. Yoziyeva U. L. Ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilarni zararli axborotlar tahdididan himoya qilishning takomillashirilgan texnologiyasi: Ped. fan. bo‘y. fal. dok. ...diss. – Nukus, 2018. – 156 b.
7. Xodjayev B. Umumta’lim maktabi o‘quvchilarida tarixiy tafakkurni modernizatsiyalashgan didaktik ta’minot vositasida rivojlantirish: pedagogika fanlari doktori. ...diss. – T., 2016. – 314 b.
8. Holkner Bernard, Geoff Romeo et al. Social media for collaborative learning: a review of school literature. – Australia: Faculty of Education, Monash University 2008. – 99 p.